



UDK:902:73(575.1)

Ulug‘bek SHAYDULLAYEV,
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: ulugbekshaydullayev51@gmail.com

IPU dotsenti B.Toshpulatov taqrizi asosida

SOPOLLITEPA YODGORLIGINING ANTROPOMORF VA ZOOMORF TERRAKOTA HAYKALCHALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada bronza davrining Sopollitepa yodgorligidan topilgan antropomorf (odam shaklidagi) va zoomorf (hayvon shaklidagi) terrakota haykalchalari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ushbu artefaktlarning shakllanish xususiyatlari, ularning san‘at va diniy e‘tiqodlar bilan bog‘liqligi, shuningdek, ularning ijtimoiy-madaniy hayotidagi o‘rni o‘rganilgan. Arxeologik topilmalar bronza davrida yashagan aholi madaniyatini tushunishda muhim dalillar sifatida baholandi. Maqolada ushbu haykalchalar boshqa mintaqalardagi o‘xshash artefaktlar bilan solishtirilib, ularning tarixiy va madaniy jihatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Sopolli madaniyati, Sopollitepa, bronza davri, terrakota, antropomorf, zoomorf, arxeologiya, haykalchalar, O‘lanbuluqsoy, Tepe Hissor, Shoh Tepe, Shahri Sohta, Tureng Tepe.

АНТРОПОМОРФНЫЕ И ЗООМОРФНЫЕ ТЕРРАКОТОВЫЕ СТАТУЭТКИ САПАЛЛИТЕПИНСКОГО ПАМЯТНИКА

Аннотация

В данной статье научно анализируются антропоморфные (в форме человека) и зооморфные (в форме животного) терракотовые статуэтки, найденные на памятнике бронзового века Сапаллитепа. В ходе исследования изучены особенности формирования этих артефактов, их связь с искусством и религиозными верованиями, а также их роль в социально-культурной жизни. Археологические находки рассматриваются как важные свидетельства для понимания культуры населения бронзового века. В статье проводится сравнительный анализ этих статуэток с аналогичными артефактами из других регионов, оцениваются их исторические и культурные аспекты.

Ключевые слова: Культура Сапалли, Сапаллитепа, бронзовый век, терракота, антропоморфный, зооморфный, археология, статуэтки, Уланбулаксай, Тепе Хиссар, Шах Тепе, Шахри Сохта, Туренг Тепе.

ANTHROPOMORPHIC AND ZOOMORPHIC TERRACOTTA FIGURINES OF THE SAPALLITEPA SITE

Annotation

This article provides a scientific analysis of the anthropomorphic (human-shaped) and zoomorphic (animal-shaped) terracotta figurines discovered at the Bronze Age site of Sapallitepa. The study examines the formation characteristics of these artifacts, their connection to art and religious beliefs, as well as their role in socio-cultural life. Archaeological findings are evaluated as significant evidence for understanding the culture of the population that lived during the Bronze Age. The article also compares these figurines with similar artifacts from other regions, analyzing their historical and cultural aspects.

Key words: Sapalli culture, Sapallitepa, Bronze Age, terracotta, anthropomorphic, zoomorphic, archaeology, figurines, Ulanbulaksay, Tepe Hissar, Shakh Tepe, Shahri Sokhta, Tureng Tepe.


Kirish. Sopolli madaniyatining rivojlanishi qator yodgorliklar orqali o‘rganilgan bo‘lsa-da, antropomorf va zoomorf terrakota haykalchalarining funksional va semantik jihatlari hali ham to‘liq tadqiq etilmagan. Ayniqsa, Sopollitepa yodgorligi ushbu davrning madaniy va diniy qarashlarini yoritishda muhim obyekt hisoblanadi. Ushbu maqolada bronza davriga oid terrakota haykalchalarining xususiyatlari, ularning xom ashyo materiali va tayyorlanish uslublari hamda ijtimoiy hayotdagi o‘rni yoritilgan.

Sopollitepa yodgorligi Janubiy O‘zbekistonning qadimgi dehqonchilik madaniyatiga oid yirik markazlardan biri hisoblanadi [1]. Ushbu hududdan topilgan artefaktlar, jumladan inson va hayvon shaklidagi terrakot haykalchalari, mahalliy aholining diniy e‘tiqodlari va san‘at bilan bog‘liq dunyoqarashlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi [2]. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mazkur haykalchalar qadimgi jamiyatda marosimlarda foydalanilgan bo‘lishi mumkin [3].

Hududdagi arxeologik tadqiqotlar natijasida aniqlangan haykalchalar morfologik va stilistik xususiyatlari jihatidan shimoliy-sharqiy Eron madaniyati bilan bog‘liq

ekanligi kuzatiladi [4]. Bu esa Sopollitepa aholisi uzoq hududlar bilan madaniy aloqada bo‘lganligidan dalolat beradi. Mazkur maqola aynan shu topilmalarni tahlil qilish, ularning tarixiy kontekstini aniqlash hamda mintaqaviy madaniyat bilan bog‘liq jihatlarni yoritishga bag‘ishlangan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Sopollitepa yodgorligi va unga zamondosh bo‘lgan madaniy qatlamlarining tadqiqi bo‘yicha ilmiy izlanishlar asosan O‘zbekiston, Rossiya va G‘arb olimlari tomonidan olib borilgan. Tadqiqotchilar mazkur hududdagi antropomorf va zoomorf terrakota haykalchalarining san‘at va diniy e‘tiqodlar bilan bog‘liqligini turli yondashuvlar orqali izohlaganlar. Sopolli madaniyati O‘rta Osiyodagi eng yaxshi o‘rganilgan madaniyatlar qatoriga kiradi [5; 6]. Sopollitepa ushbu madaniyatning eng asosiy yodgorliklaridan biri hisoblanib, Surxondaryo viloyatining (Muzrabod tumani) SHerobod cho‘lini kesib o‘tgan Ulanbuluqsoy yoqasida joylashgan. Yodgorlik 1968-yil arxeolog L.Albaum tomonidan topilgan va 1969-1974-yillarda akademik A.Asqarov tomonidan keng tadqiq etilgan (1-rasm).



1-rasm. Yodgorlikning reja-chizmasi (Sopollitepa)

A.Asqarovning tadqiqotlariga ko'ra, Janubiy O'zbekistondagi bronza davri madaniyatining rivojlanishi qishloq xo'jalik jamiyatining shakllanishi bilan bog'liq bo'lgan [7]. U o'z asarida bu jarayonning moddiy dalillari sifatida turar joy qoldiqlari, sopol buyumlari va haykalchalarni keltiradi.

Maqolani yoritishda tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillaridan foydalandi.

Natijalar va muhokama. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Arxeologiya instituti ekspeditsiyasining 1969-1971-yillardagi dala tadqiqotlari Sopollitepa manzilgohining markaziy, shuningdek, shimoliy-sharqiy va janubiy-sharqiy qismlarida qazishmalar olib borishga qaratilgan edi. Mazkur yillarda A.Asqarov rahbarligida keng ko'lamli arxeologik qazishmalar amalga oshirildi. Qazishmalarda O'zFA Arxeologiya instituti katta ilmiy hodimlari- X.I.Duke, T.M.Mirsoatov, T.Xodjayovlar ham ishtirok etishgan [7].


Arxeologik qazishmalar davomida ko'plab moddiy-madaniy ashyolar topildi. Jumladan, Sopollitepa yodgorligining nisbiy xronologiyasini aniqlashga yordam bergan asosiy topilmalardan biri – 3ta gil odam shaklidagi haykalchalar va 4ta hayvon shaklidagi haykalchalar aniqlandi.

Ushbu haykalchalar mil.avv. II mingyillikka oid bo'lib, Nomozgoh madaniyatining barcha bosqichlari uchun xos bo'lgan terrakota haykalchalarining evolyutsiyasi haqida muhim ma'lumot beradi.

V.M.Masson o'z tadqiqot xulosalariga ko'ra Nomozgoh I-IV bosqichlarida realistik uslubdagi haykalchalar keng tarqalgan. Nomozgoh V bosqichidan boshlab esa ular yanada soda, sxematik shaklga ega bo'la boshlaydi. Bu jarayon o'sha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Kolleksiyada 3ta antropomorf haykalcha mavjud bo'lib, ulardan biri Sopollitepa yodgorligining №40- kenotaf qabridagi sopol idishlar orasida topilgan. Qolgan ikki haykalcha esa №71- qabrning janubiy qismida, Sopollitepa aholi maskanining yuqori qurilish qatlamida aniqlangan. Haykalchalar loydan yasalgan va quyoshda quritilgan. Ularning shakli juda soddalashtirilgan, sxematik uslubda ishlangan.


№40- qabrning uchinchi qurilish bosqichida topilgan haykalcha qo'llarini ikki tomonga yoygan holda tik turgan odamni tasvirlaydi. Bosh qismi qisqaroq, yassilangan va uchli shaklda, bel qismi esa keng qilib ishlangan (2-rasm) [7].



2-rasm. Loydan yasalgan odam haykalchasi (Sopollitepa).

Ikkinchi haykalcha o'tirgan homilador ayolni ifodalaydi. Unda qo'llar, bosh va bitta ko'krak tasvirlangan


(bosh va qo'llar sinib ketgan). Ayniqsa, qorin bo'rtib chiqqan bo'lib, kindik aniq ko'rsatilgan (3-rasm) [1].



3-rasm. Homilador ayol terrakota haykalchasi Sopollitepa).

Uchinchi haykalcha to'liq tik turgan ayol tasvirini aks ettiradi. Unda yuz, qo'llar va hatto bosh kiyimi aniq belgilangan (4-rasm) [1].

Ikkinchi va uchinchi haykalchalar №71- qabr chetida yuzma-yuz joylashgan bo'lib, ular homilador ayol va doyaning tasvirlari sifatida talqin qilingan [1].



4-rasm. Tik turgan ayol haykalchasi (Sopollitepa).

Sopollitepa №40- qabridan topilgan birinchi antropomorf haykalchasiga o'xshash sxematik shakldagi odam haykalchasi Hissartepa yodgorligining (Shimoliy-sharqiy Eron) uchinchi qatlamidan arxeolog E.Shmidt tomonidan 1931-1932-yillardagi qazishmalar natijasida topilgan. Shuningdek, bu yerdan alebasterdan yasalgan boshqa bir o'xshash haykalcha namunasi ham topib o'rganilgan [8].

T.J.Arne rahbarligida 1932-1933-yillardagi Shohtepa yodgorligida (Shimoliy-sharqiy Eron) olib borilgan qazuv ishlari davomida ikkinchi qatlamdan Sopollitepa odam haykalchasiga o'xshash namunadagi sxematik haykalcha aniqlandi [9].

Xuddi shunday namunadagi odam haykalchasi Turengtepa yodgorligidan (Shimoliy-sharqiy Eron) amerikalik tadqiqotchi F.R.Vulsin tomonidan 1931-yil topib o'rganilgan [10].

Demak Shohtepa va Turengtepa yodgorliklaridan topilgan marmar va toshdan yasalgan haykalchalarning tuzilishi Sopollitepa antropomorf haykalchasini eslatadi.

M.Tosi tomonidan 1967-yil Shahri Sohta yodgorligida ham ko'plab odam va hayvon haykalchalari topilgan bo'lib, ularning barchasi sxematik oddiy geometrik shakllarga ega [11].

Sopollitepa yodgorligidan odam haykalchasi bilan birgalikda 4 ta zoomorf haykalchalari ham aniqlangan. Ulardan uchtasi loydan, biri esa toshdan ishlangan. Loy haykalchalari juda soddalashtirilgan bo'lib, ularning qaysi hayvonga tegishli ekanligini aniqlash qiyin. Figuralarning bosh qismi sinib ketgan, oyoqlari esa jiddiy shikastlangan. Faqat bittasida qisqa, uchli dum saqlanib qolgan. Ushbu haykalcha uy cho'chqasini eslatadi [1].



5-rasm. Loydan yasalgan cho'chqa tasvirli haykalcha (Sopollitepa).

Loy haykalchalardan farqli ravishda tosh haykalcha ancha aniq va realistik ishlangan. Bu kichik haykalcha mergel toshidan o'yib ishlangan qurbaqa yoki baqani ifodalaydi. Uning o'ng old oyog'i sinib ketgan, ammo boshi, qop-qora qovoqli ko'zlari va o'tirgan holati aniq aks ettirilgan [1].

Haykalcha hajmi 4 x 3 sm.ga teng. Sopollitepa qurbaqa kompozit tosh haykalchasi mil.avv. XVII-XVI asrlarga oid bo'lib, ayni vaqtda O'zbekiston tarixi davlat muzeyidagi eksponatlar qatoridan (Inv. №253/92) o'rin egallagan (6-rasm) [12].



6-rasm. Mergel toshidan ishlangan qurbaqa yoki baqa haykalchasi (Sopollitepa).

Qurbaqa yoki baqa azaldan o'zbek xalqida namgarchilik va hosildorlik ramzi hisoblanib kelingan [13].

Sopollitepadagi ko'p yillik arxeologik tadqiqotlar davomida bronza metalidan quyma asosida tayyorlangan soch to'g'nog'ich topilgan bo'lib, mil.avv. XVII-XVI asrlarga tegishli ushbu artefaktning yuqori qismi taka (Osiyo mufloni) ko'rinishida gavdalangan. To'g'nog'ich uzunligi 20,5 sm. Ayni

vaqtda O'zbekiston tarixi davlat muzeyida (Inv. №253/51) saqlanmoqda. To'g'nog'ichning stilistik va texnologik tahlili o'rganilganda undagi muflon (taka) shakli oldida uslublashtirilgan "odam qiyofasi" aks ettirilgan. Ushbu tasvirni antropomorf san'at namunasi sifatida talqin qilishimiz mumkin (8-rasm).



8-rasm. Bronza soch to'g'nog'ich (muflon(taka) va yonida uslublashtirilgan inson qiyofasi tasvirlangan) (Sopollitepa).

Antropomorf va zoomorf tasvirlar Sopollitepa haykalchalaridan tashqari muhrlarida ham uchratish mumkin. Akademik A.Asqarov tomonidan topilgan, avval Samarqand shahar A.Ikromov nomidagi muzey qo'riqxonada, so'ng Afrosiyob muzeyiga o'tkazilgan ikkita Sopollitepa muhrlari mavjud. Ulardan biri ikki tomonli bosma muhr sanalib, unda tog' echkisining yon tomondan ko'rinishi (birinchi tomonida) va qanotli erkak va ayolning biroz xiralashgan erotik holati (ikkinchi tomonida) tasvirlangan [14]. Muhrda dumli erkakning kursida o'tirgan holati yoki "erkaklik belgisi" bo'rttirib ifodalangan tasviri chizilgan. Ayol tasvirining yarmibeldan past qismi o'chib ketgan. Ikkala inson qiyofasining yuz qismi ifodalangan bo'lib, bir-biriga yopishtirilib chizilgan ikkita aylanadan iborat.

Xulosa. Yuqorida bayon etilgan ilmiy tahlillardan quyidagi xulosaga kelish mumkin: Nomozgoh madaniyatining

dastlabki bosqichlarida (Nomozgoh I-IV) haykalchalar realistik uslubda ishlangan. Keyingi bosqichlarda, xususan Nomozgoh V-VI davriga kelib, san'atda sxematiklik uslubi kuchaya boshlagan. Bu jarayon ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin; antropomorf haykalcha ibodat yoki diniy marosimlar uchun ishlatilgan bo'lishi ehtimoli katta. Zoomorf haykalchalar esa, ehtimol, totemistik e'tiqod yoki hosildorlik bilan bog'liq marosimlar uchun xizmat qilgan; Sopollitepadan topilgan antropomorf terrakota haykalchasi shimoliy-sharqiy Eronning Shahri Sohta, Hissartepa, Shohtepa hamda Turengtepa kabi boshqa bronza davri yodgorliklaridagi haykalchalar bilan o'xshashliklarga ega. Ushbu qiyosiy tahlillar bronza davrida bu hududlar o'rtasida madaniy aloqalar bo'lganligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Аскарлов А.А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. «Фан», Ташкент:-1977. С.13-15.
2. Виноградова Н.М. Ранние земледельцы Южной Средней Азии. «Наука», Москва.2004. С.87-89
3. Kohl P.L. Central Asia: Palaeolithic Beginnings to the Iron Age// Editions Recherche sur les Civilisations. Paris, 1984. Pages 112-115
4. Tosi M. Early Urban Cultures of Central Asia./ Smithsonian Institution:- Washington, 1993. Pages 56-60
5. Ширинов Т.Ш. Ранняя городская культура на юге Средней Азии.- Самарканд, 1993.
6. Shaydullayev Sh.B. O'zbekiston hududida davlatchilikning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari. Tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati – Samarqand, 2009.
7. Аскарлов А.А. Сапаллитепа. «Фан»- Ташкент, 1973. С.8
8. Schmidt E.F. Excavations at Tepe Hissar Excavations of 1931. Philadelphia, 1933. pl.XLII. H 3699. Fig.114
9. Arne T.J. Excavations at Shah Tepe, Iran. Stockholm, 1945. Fig.526.
10. Wulsin F. Excavations at Tureng Tepe, near Asterabad: Bulletin of the American Institute for Persian Art and Archaeology, V.2. No.1, 1932. pl.XVII. Fig.3-5.
11. Tosi M. Excavations at Shahr-i Sokhta, a chalcolithic settlement in the Iranian Sistan. Preliminary Report on the first campaign, October-December 1967. East and West. Rome, 1968. Fig.152,154,156,157; Fig.129,130,131,134,142,144.
12. Munasyants V.S., Musakayeva A.A. "O'zbekiston madaniy merosi" mualliflik turkumi: O'zbekiston tarixi davlat muzeyi. 1-qism. "Arxeologiya va numizmatika" kitob- albom. Toshkent, 2020. B.80.
13. Ashirov A.A. O'zbek madaniyatida suv. – Toshkent: Akademnashr, 2020. B.76.
14. Shaydullayev A.Sh. Sopolli madaniyati gliptikasi va sfragistikasi. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent, 2017. B.36.